

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DIVIDEND SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIYOTDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARI ROLINI YANADA OSHIRISH

Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi

TDIU

Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti talabasi

xonshams@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatining ilmiy- nazariy jihatlarini tadqiq qilingan, hamda, olib borilayotgan dividend siyosati tahlil qilingan. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarida dividend to‘lash bo‘yicha bir qancha dolzarb muammolar aniqlangan va ularni bartaraf etish yuzasidan tegishli taklif va xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: aksiyadorlik jamiyati, dividend siyosati, qimmatli qog‘ozlar, kapital, moliyaviy instrumentlar, soliq, taqsimlanmagan foyda.

KIRISH

Kompaniya dividend siyosatining eng muhim jihati bo‘lib, dividend to‘lovlari va uning kompaniya rivojlanishi uchun qoldiriladigan qismi o‘rtasida foydani taqsimlashning optimal nisbatlarini topish hisoblanadi. Dividend siyosati dividendlarni to‘lashga ketadigan foyda ulushi bo‘yicha qarorlar to‘plamini anglatadi. Shu bilan birga, sof foyda kapitallashuvi uning ishlab chiqarishni rivojlantirish, investitsiyalardan keladigan sof pul oqimini qayta investitsiyalash, yangi aksiyalar shaklida dividend to‘lovlarini amalga oshirish, depozit omonatining o‘shishiga depozit foiz miqdorini yo‘naltirish va boshqalarni anglatadi.

Ta’kidlash joizki, foydani qayta investitsiyalash kompaniya uchun yangi aksiyalarni chiqarish bilan taqqoslaganda, nisbatan arzon moliyalashtirish shakli bo‘lib, uning faoliyati ustidan mulkdorlarni nazorat qilishning mavjud tizimini saqlab qolishga imkon beradi. Kapitalizatsiya qilingan foyda miqdorining o‘shishi korxonaning mulkiy holatining o‘shishi, o‘z mablag‘larining ko‘payishini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

XX asrning 50-chi yillari o‘rtalarida iqtisodchi J.Lintner tomonidan korporatsiyalar menejerlari o‘rtasida o‘tkazilgan dividend siyosati bo‘yicha so‘rovnomalar shuni ko‘rsatdiki:

Lintnerning kuzatishlariga ko'ra¹, menejerlar buni istamay bajaradilar. Ularning fikricha, aksiyadorlar dividendlarning barqaror o'sishini afzal ko'radi. Shuning uchun, kompaniya dividendlarini ancha oshirish imkoni bo'lgan taqdirda ham, menejerlar to'lovlarning normativ darajasiga faqat qismangina yaqinlashadilar. Kompaniya qanchalik konservativ bo'lsa, u normativ darajaga shunchalik sekin yaqinlashadi va tegishlicha, tuzatuvchi koeffitsiyent shunchalik past bo'ladi.

N. Litsenberger va K.Ramasvami tomonidan o'tgan asrning 80- yillari boshida ishlab chiqilgan "Dividendlarni minimallashtirish yoki soliq asmmimetriyasi (imtiyozlari) nazariyasi"ga ko'ra², dividendlarni olish vaqtida ular darhol soliqqa tortiladi, kapital ortishi bo'yicha daromad solig'i faqat aksiyalar, paylar sotilgandagina to'lanadi. Shunday qilib, kapital ortishi bo'yicha daromad solig'i nazariy jihatdan uzoq muddaga kechiktirilishi mumkin. Ushbu faktni hisobga olgan holda, R. Litsenberger va K.Ramasvami, agar dividend solig'i kapital o'sishi bo'yicha daromadlar bo'yicha to'lanadigan soliqlardan katta bo'lsa, kompaniyalar dividendlarning past darajasini to'lashlari kerak degan nazariyani taklif qildilar.

F. Modilyani va M. Miller 1961–yilda chop etilgan ilmiy ishida, tanlangan dividend siyosati joriy davrda va istiqbolda korxonaning bozor qiymatiga (aksiyalar narxiga) ham, mulkdorlarning farovonligiga ham hech qanday ta'sir o'tkazmaydi, chunki bu ko'rsatkichlar taqsimlanadigan emas, balki shakllanadigan foyda summasiga bog'liq, deb ta'kidlaydilar. Ushbu nazariyaga muvofiq, dividend siyosati foydani boshqarish mexanizmida passiv rol o'ynaydi.³

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada xorijiy va mahalliy olimlarning aksiyadorlik jamiyatidagi dividend siyosati va uni to'lash tamoyillari, hozirgi kundagi o'rni va uni rivojlanishiga to'siq bo'layotgan bir qancha omillar va ularni oldini olish chora-tadbirlari to'g'risidagi ilmiy- nazariy qarashlar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida baholash, monitoring, analiz, sintez kabi bir qancha usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1982–yilga qadar AQSHda dividendlar bo'yicha daromad solig'i stavkasi 70 foizni, kapitalning o'sishi esa 50 foiz edi. 1982– yildan keyin soliq stavkalari kamaydi (50% va 20%), 1986–yilda esa bir xil (28%) bo'ldi. O'zbekiston Respublikasida 2018–

¹ Ковалев В.В. Курс финансового менеджмента: учеб.- 2- е изд., перераб. и доп – М.: Проспект, 2014.- 480 с.

² Грачев А.Н. Финансовая устойчивость предприятия. Критерии и методы оценки в рыночной экономике. – М.: Дело и Сервис, 2013. – с. 450.

³ А.А.Темиров. Dividendlar va dividend siyosati. O'quv qo'llanma. – Т.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 288 b. 48-b.

yilgacha dividend solig'i stavkasi 10 foizni, 2018–yildan 5 foizni tashkil etdi, reinvestitsiya qilingan foyda esa soliqqa tortilmaydi.

“O‘zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasi” AJ ning so‘nggi 5 yil davomida hisoblangan va to‘langan dividendlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar.

2-jadval.

To‘lov yili	1 oddiy aksiya uchun dividend so‘mda	Dividendlarga ajratilgan sof foyda %	Dividendlarni to‘lash uchun ajratilgan sof foyda miqdori	Muomala-dagi aksiyalar soni	Umumiy yig‘ilish o‘tkazilgan sana
2022	1650.0	88,31%	123681393000.00	74958420	19.03.22
2021	1100.0	86,95%	82454262000.00	74958420	20.03.21
2020	2490.0	76,135%	62215488600.00	24986140	22.05.20
2019	550.0	52,23%	17342377000.00	24986140	24.05.19
2018	230.0	65,07%	5746812200.00	24986140	24.05.18

Manba: uzex.uz ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Quyidagi jadvalda “O‘zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasi” AJ ning 5 yil davomidagi ajratilgan dividendlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ko‘rishimiz mumkin, shu jumladan, bir aksiyaga to‘g‘ri keladigan dividend miqdori, dividendlarga ajratilgan sof foyda , muomaladagi aksiyalar soni va shu kabi muhim ma‘lumotlar ko‘rsatilgan. Ma‘limki aksiyadorlar jamiyatining umumiy yig‘ilishi o‘tganidan so‘ng 60 kun ichida dividendlarto‘lab beriladi. “O‘Zrtsb” da esa umumiy yig‘ilish har yilning 3- yoki 5-oylarining oxrida o‘tkazilgan.

2018-yildan to 2020-yilgacha aksiyalari soni 24986140 tani tashkil etgan bo‘lsada dividend har aksiya boshiga turlicha tog‘ri kelgan, ya‘ni mos ravishda 230.0 so‘m, 550.0 so‘m bo‘lgan va 2020-yilda sof foyda miqdori oshganligi sababli bu ko‘rsatkich 2490.0 so‘mni tashkil etgan.

2021-yildan boshlab muomaladagi aksiyalar soni 49972280 taga oshib 74958420 donaga yetdi. Ammo, taqsimlanmagan foydada ko‘proq jamg‘armalarga yo‘naltirilganligi va aksiya baholarining tushishi natijasida, 1 aksiyaga tog‘ri keladigan dividendlar miqdori 2020-yilda keskin tushdi va 1100 so‘m, 2022- yilda esa 1650 so‘mga yetdi. Bu dividen to‘lash uchun ajratilgan sof foyda miqdorining 86%, 88% ini tashkil qildi.

Umuman olganda “O‘Zrtsb” AJ ning 5 yillik dinamikasiga ko‘ra aksiyalari soni yillar davomida o‘sgan, lekin kamaymagan. 2020- yilda 1ta aksiyaga eng yuqori dividend ajratgan bo‘lsada, 2022- yilda aksiyalari soni oshganligi va yuqoriagi sabablar tufayli 1 ta aksiya uchun 1650 so‘m to‘lagan . Ammo bu AJ ning faoliyati orqaga ketayotganidan dalolat bermaydi, aksincha bu kompaniyaga investorlarni qiziqishi ortmoqda va shu sababli aksiyalari soni ko‘p , narxi esa biroz arzonlashgan

va bu dividendlaega ajratilgan umumiy sof foyda 123681393000.00 ning 88.31% ini tashkil etadi. Qolgan yillarga qaraganda bu ijobiy holat ya'ni, "O'Zrtsb" o'sishda davom etmoqda va "RFB" dagi salmoqli o'rnini yo'qotgani yo'q.

XULOSA

Shunday ekan, aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini takomillashtirish uchun kichik va chakana biznes segmentiga alohida e'tibor berib, muvozanatli diversifikatsiyalangan o'sish rejasiga ega bo'lishi, raqobat pozitsiyasini kuchaytirishi, dividend siyosati va uni kapitallashuvidan foydalanib talablarni qondirishi va eng asosiysi biznes rentabilligini oshirib aktivlar sifatini yuqori darajada ushlab turishi lozim.

Dividend siyosatini takomillashtirish aksiyadorlik jamiyatlarining rivojiga o'zining hissasini qo'shar ekan. Demak, bu maqsadlarga erishish uchun strategik shaffoflik, barqarorlik, ishonchlilikni ta'minlash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

- 1.1 Ковалев В.В. Курс финансового менеджмента: учеб.- 2- е изд., перераб. и доп – М.: Проспект, 2014.- 480 с.
- 1.2 Грачев А.Н. Финансовая устойчивость предприятия. Критерии и методы оценки в рыночной экономике. – М.: Дело и Сервис, 2013. – с. 450.
- 1.3 А.А.Темиров. Dividendlar va dividend siyosati. O'quv qo'llanma. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 288 b. 48-b.
- 1.4 <https://www.nyse.com/index>